

O‘ZBEK NIKOH TO‘YI MAROSIMI FOLKLORI JANRLARI GENEZISIGA DOIR

Guljaxon Amonovna MARDONOVA

Filologiya fanlari doktori (DSc)

O‘zbekiston Milliy axborot agentligi

Toshkent, O‘zbekiston

e-mail: guljahonomonovna@gmail.com

ORCID: <http://orcid.org/0009-0001-1161-9621>

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek nikoh to‘yi marosimi folklori janrlarining genezisi qadimgi ajdodlarimizning tabiat hodisalari, inson va olam aloqadorligiga bog‘liq arxaik tafakkuri hosilasi sifatida tahlil etiladi.

Tayanch so‘zlar: o‘zbek nikoh to‘yi, marosim, folklor.

ПО ГЕНЕЗИСУ (ПРОИСХОЖДЕНИЕ И ФОРМИРОВАНИЕ) ЖАНРОВ УЗБЕКСКОГО СВАДЕБНОГО ОБРЯДОВОГО ФОЛЬКЛОРА

Гулжахон Амоновна МАРДОНОВА

Доктор филологических наук (DSc)

Национальное информационное агентство Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье анализируется генезис жанров фольклора узбекского свадебного обряда как продукт архаичного мышления наших древних предков, связанного со взаимосвязью природных явлений, человека и мира.

Ключевые слова: узбекская свадьба, обряд, фольклор.

Nikoh to‘yi marosimi, u bilan bog‘liq turli udumlar, an‘analarning yuzaga kelishi qadimgi ajdodlarimizning tabiat hodisalari, inson va olam aloqadorligiga bog‘liq arxaik tafakkuri hosilasi tizimida paydo bo‘lib, maishiy-etnografik hodisadan badiiy-estetik hodisaga aylangan. Nikoh institutining ibtidosi insoniyat o‘tmishining juda qadim davrlarida erkak va ayol o‘rtasidagi endogamiya munosabatlarning barham topib, monogam ahd va patrilokal oila qaror topishiga borib taqaladi. Nikoh to‘yi marosimi folklorining yuzaga kelishi ham bevosita o‘sha davrlarga borib tutashadi.

Professor H.Karomatov fikricha: “Ibtidoiy inson uchun Ibtido g‘oyasini anglash o‘ta muhim ahamiyat kasb etib, u o‘z o‘tmishi, kelib chiqish bilan bog‘liq xotirasini saqlab qolishga intilgan. ...Shu tariqa, uning hayoti va diniy e‘tiqodlari

ogʻzaki ijod anʼanasida oʻz aksini topib, vaqt oʻtishi bilan afsonalarga aylangan. Afsonaviy siymolarda inson atrof-muhit – tabiatni va jamoasi hayotini aks ettirib taskin topgan. Quyosh, Yer, tabiat hodisalarini aks ettirgan asotirlar bilan bir qatorda biron joy nomini yoki faraz etilgan ajdoddan kelib chiqqan qabila shajarasini tushuntiruvchi mahalliy ertaksimon folklor vujudga keladi” [6;22-23]. Demak, davrlar oʻtishi bilan ajdodlarimizda ohangni anglash, his qilish, uni ifodalash bilan birgalikda yon-atrofida sodir boʻlayotgan voqea-hodisalarga nisbatan munosabat shakllanib borgan. Bu esa xalq ogʻzaki ijodining yuzaga kelishida muhim rol oʻynagan.

Bizning fikrimizcha, nikoh toʻyi bilan bogʻliq janrlar, ularning ijro xususiyatlarida arxaik elementlar saqlanganligi, birinchidan, uning qadimiyligini koʻrsatsa, ikkinchidan, ular bevosita marosim tarkibida aytilishi bilan ajralib turadi. Nikoh toʻyi marosimi qoʻshiqlari va aytimlari qachonlardir arxaik shaklda maʼlum bir ritual vazifani bajargan. Uning ritual-mifologik koʻrinishi asta-sekinlik bilan badiiy-estetik tafakkur rivoji asosida janr shakliga, janr esa maʼlum bir kompozitsion yaxlitlik tizimiga xos poetik koʻrinishda anʼanaviylashib, ijro belgilariga ega boʻldi. Bu jarayon mifologik dunyoqarashning transformatsion kechimida estetik tafakkur koʻrinishiga oʻtib, sekin-asta sof badiiyat eshiklarini ochib berdi. Qolaversa, nikoh toʻyi marosimi qoʻshiq va aytimlarining mifologik subyekt shaklining madaniy qiyofada rivojlanish bosqichi dinamik oʻzgarish, dinamik oʻsish jarayoni bilan bogʻlanadi. Janrga xos ushbu holat mif – marosim – qoʻshiq koʻrinishidagi estetik tafakkur tizimini hosil qilib, umumiy maʼnodagi evolyutsion bosqich kesimida baholanadi. Xususan, jamiyatdagi oila va nikohga nisbatan axloqiy munosabatlar bunga sabab boʻldi, deyish mumkin.

Oʻzbek nikoh toʻyi marosimi folklori janrlari minglab yillar oldin insoniyatning maʼnaviy ehtiyoji sifatida yuzaga kelgan, tarixan shakllangan. Ular bizga oʻsha davr etnik holati, ajdodlarimizning magik ishonchlari, dunyoqarashi, tabiatga munosabati haqida maʼlumot beradi. Nikoh toʻyi marosimida amal qilinadigan barcha xatti-harakatlar insoniyat hayotida sinovdan oʻtib, tabiat oʻzgarishlari, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, turli mafkuralarning bir-biriga

ta'siri o'zbek nikoh to'yi folklorining evolyutsion o'zgarishlarga uchrashiga sabab bo'ldi. Chunki nikoh to'yi marosimi va uning genezisi, ijrosiga doir arxaiik shakllarning estetiklashuv holati ma'lum janr va aytimlarning an'anaviylashuvi hamda marosim tarkibidan mustahkam joy olishiga imkon yaratadi.

Qadimda bir qancha urug'lar fratriyalarga birlashib yashagan. *Fratriya* – (yunoncha *phratia*) qabilaning bo'linishi, bir qancha urug'larning yig'indisi. Ibtidoiy jamoa davrida fratriyalar tashkilot sifatida jamoatchilik va diniy funksiyalarni bajargan. Bir fratriya orasida nikohga yo'l qo'yilmagan, turli fratriyalar o'rtasida qiz olib, qiz berilgan [11;699]. Bunday ibtidoiy talab esa turli xil sinov ko'rinishlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. N.Kasimovning fikricha: "Bir fratriyadan qiz olish uchun kuyov tomon turli xildagi sinovlarni bajargan, turli xildagi to'lovlarni to'lagan. Mana shunday ritual sinov ko'rinishlaridan biri kelin tomonning qizlari bilan kuyov tomondan kelgan yigitlarning o'zaro so'z va hozirjavoblikda bir-birlarini sinab ko'rishi sanaladi. Darhaqiqat, qizlar bazmida, ya'ni asosiy to'ydan bir kun oldin lapar aytish udumi keyinchalik oddiy ko'ngilxushlik va tomosha qilish maqsadida o'tkaziluvchi an'anaviy odatga aylangan bo'lsa ham, urug'chilik davrida u jiddiy ritual sinov vazifasini o'tagan" [7;20-21]. Demak, nikoh to'yi marosimi qo'shiqlarining genezisi borasida turfa qarashlar mavjud bo'lsada, ularning tarixiy asoslarida xalqimiz e'tiqodiy qarashlari yotadi.

Lapar to'y marosimi folklori janri sifatida qadimiy ijrosiga ega bo'lib, ijro jarayonidagi ritual xatti-harakatlar bevosita nikohga doir uzv bilan bog'lanadi. Matn mazmunidagi g'oyaviy maqsad qiz (kelin) va yigit (kuyov)ning ruhiy vaziyati, shaxsiy kechinmalari, tabiatidagi o'zgarishlar voqeabandlik asosida badiiy bo'yoqlarda tasvirlana boradi. Uning tartib bilan ijro etilishi, dialoglarga asoslanganligi, ma'lum bandlar tizimida shakllanishi va mustaqil mazmunga egaligi janrga xos belgisini ifodalaydi.

Demak, ijro o'rni, ijrochilar tarkibi, o'tkazilishi va bajaradigan vazifasiga ko'ra lapar janri Markaziy Osiyo xalqlari oilaviy-maishiy marosimlarida qadimdan mavjud bo'lgan, nikoh to'ylari bilan bog'liq holda rivojlanib, tarixiy-folkloriy

jarayon dinamikasi nuqtayi nazaridan yashab keldi. Biroq, “Lapar” janriga xos o‘xshashlik boshqa turkiy xalqlar marosimida ham ko‘zga tashlanadi. Qo‘miqlarning to‘y-marosim folklorini tadqiq qilgan A.Mollayevning fikricha, qo‘miqlarda kuyovnavkarlar aytishuv qo‘shiqlariga usta bo‘lib, “abay” (kelinning hamrohi) ham bo‘sh kelmasligi, qiz tomonni javoblari bilan himoya qilishi shart [8;9] ekanligini ta’kidlab, “Lapar”ga xos janrning mavjudligi, u qo‘miqlarda faqat nikoh kuni amalda bo‘lishini qayd etadi. Fikrimizcha, nikoh to‘yi bilan bevosita aloqador aytishuvlar Markaziy Osiyo xalqlari bilan bir qatorda Kavkazda yashovchi turkiy xalqlarda ham qadimdan mavjud bo‘lgan.

“O‘lan” nikoh to‘yining birinchi bosqichida qiz tarafda o‘tkaziluvchi “Qiz oqshomi” marosimida ijro etilishi bilan diqqatga sazovordir. S.Muqanovning ta’kidlashicha, “O‘lan” janrining kelib chiqishiga shomonlik badik-aytislar asos bo‘lgan. “Shomonlikka e’tiqod qilgan kishilar o‘zlarining chorva mollari va odamlarda uchraydigan turli kasalliklarning o‘z “egasi” bo‘ladi va badik-aytis ijrosi orqali bemor tanasidan ana shu kasallikni keltirib chiqaruvchi ruhlarni quvish mumkin, deb o‘ylagan” [9;12-13]. Lekin biz S.Muqanovning fikriga qo‘shilmaymiz. Buning sababi, “Badik” janrida so‘z magiyasiga ishonch ustunlik qilishi kuzatilib, bandlarda tizimlilik yetishmaydi, qofiyalarga rioya qilinmaydi, matnda lirizm kuzatilmaydi. Qolaversa, har ikki janrni bir-biridan farqlovchi jihati ijro o‘rni, ijrochilar tarkibi, g‘oyaviy mazmunidagi farq bilan izohlanadi. Bundan tashqari badik janri badikxonning ekztaz holatiga ko‘ra matn, ohang, ritual xatti-harakat nuqtayi nazaridan o‘lanlardan keskin farq qiladi. Bu esa ikki janrning tub ildizlari bitta emasligini anglatadi.

Folklorshunos Sh.Imomnazarova o‘z dissertatsiyasida: “Qozoq xalq aytislarini o‘rgangan M.Karatayevning fikricha, oqin aytishuvlarining kelib chiqish tarixi qadimdagi ikkita qabila yoki ikki fratriya, ya’ni urug‘ birlashmalari o‘rtasida yuzaga kelgan muayyan ixtilof yoki tushunmovchiliklarni hal qilish paytida ishtirok etgan ikki taraf oqsoqollari, qabila yo‘lboshchilari yoki kohinlarning tarafma-taraf bo‘lib muzokaralar yuritishi chog‘idagi o‘zaro nutqiy muloqoti bilan bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, o‘tmishdagi o‘zaro nizo va ixtiloflarni bartaraf etish

maqsadida ijro etilgan she'riy shakldagi ramziy dialoglar keyinchalik aytishuv (ya'ni aytis) janrining shakllanishiga asos bo'lgan"ligini [3;28] ta'kidlab, "O'lan" janri genezisini olim ta'kidlagan fikr bilan bog'liqlikda izohlashga harakat qiladi. Qolaversa, "O'lan" janri genezisining islomdan oldingi diniy qarashlar asosida yuzaga kelganligi borasidagi fikrlar ham asoslidir. "O'lan janri ibtidoiy jamiyatning dual tuzilishiga asoslangan qadimgi nikoh marosimlarining rivojlanishi natijasida kelib chiqqan bo'lib, bu janrga oid poetik matnlar asrlar davomida xalq tomonidan yaratilib, jonli ijro jarayonida doimiy ravishda boyib, sayqallanib kelgan" [3;13].

"Tarixiy taraqqiyotning matriarxat davridan patriarxat davriga o'tish davrida yuzaga kelgan ekzogamik nikoh turi o'zi bilan birga nikoh to'yi marosimiga ayrim o'zgachaliklarni olib keldi. Bir qabila vakili ikkinchi bir qabila vakiliga uylanishi uchun kelin mansub bo'lgan qabilaning qabila boshlig'i yoki qizning otasi hamda qizning o'zi qo'ygan shartlarni bajarishi shart bo'lgan. Ushbu hayotiy voqealar o'zbek xalq ertaklari va dostonlarining asosiy an'anaviy motivlaridan biriga aylanganligi fikrimiz dalilidir. O'lanlarni aynan qizning hovlisida aytishuv shaklida ijro etilishi ham shundan kelib chiqqan bo'lsa kerak. Chunki aytishuvda yengib chiqish ham sinovning bir ko'rinishi hisoblangan" [3;38]. Qoraqalpoq shoirlari ijodidagi "Aytyis" janrini tadqiq qilgan K.Allambergenov ushbu janrning tarixiy asoslari marosim folkloriga aloqador ekanligini ta'kidlaydi [1;17]. Bizning fikrimizcha, qadimgi nikoh bilan bog'liq tartib-qoidalar, xususan, yigit va qiz tarafni sinash, ularning hozirjavobligi, o'z urug'-aymog'ini himoya qila olish qobiliyati ana shunday aytishuvlar orqali namoyon bo'lgan. Bunday aytishuvlar chog'i so'zamolligi, chechanligini namoyon eta olmagan taraf mag'lub sanalgan. Aksincha, inson va tabiat uyg'unligini so'z va ohang vositasida ifodalay bilgan, orzu-umidlarini tovush, ritual xatti-harakatlar orqali yetkaza olgan, ota-onani e'zozlash, mardlik, jasurlikning qiymati, mehnatning qadrini kuylay bilgan urug' g'olib sanalgan. Masalaga falsafiy yondashadigan bo'lsak, g'olib tarafning o'zi obro'li, so'zi ham qadr-qimmatli bo'lgan. Insoniyat tafakkuridagi o'z-o'zini anglash, baho berish, boshqalar tan olishiga erishish ana shu vositalar – xalq aytimlari orqali ham shakllangan.

“Yor-yor” janrining genezisi to‘g‘risida turlicha qarashlar mavjud. Qozoq olimi M.Karatayevning fikricha: “...qozoq folklorida mavjud ko‘hna “Jar-jar” va “Qayim-aytis” janrlarining kelib chiqishi qadim davrlar, xususan, urug‘-qabilachilik davriga xos nutqiy muloqot usullari bilan bevosita bog‘liq” [5;324]. M.Euyezov esa: “...oqinlar aytishuvi genezisida “Yor-yor” va “Badik” janrlarining kelib chiqishi qadimgi jamoa a‘zolarining marosimlar paytida duet shaklidagi qo‘shiqlarni jo‘r bo‘lib aytishi odati bilan bog‘liq” [12;10], degan to‘xtamga keladi. Folklorshunos olim, professor A.Musaqulovning quyidagi fikrlari “yor-yor” qo‘shiqlarining genezisi masalasiga qisman bo‘lsada, oydinlik kiritadi. “An‘anaviy dunyoqarashda kishilar o‘z urug‘i, qabilasidan boshqa kishilarni butunlay begona olam vakillari deb tushunganlar. “Yor-yor” qo‘shiqlarida kuyov tomonning yot dunyo vakillari deb bilinishi ham ana shuning hosilasidir” [10;21-22].

Nikoh to‘yi marosimi qo‘shiqlari negizida magik-ritual munosabatlarning saqlanish jarayoni “Kelin salom” aytishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Kelin salom” janrining genezisiga oydinlik kiritish uchun eng avvalo ushbu marosimlarda ahamiyatli bo‘lgan irim-sirim, rasm-rusum, ishlatiladigan buyum hamda raqamlar bilan bog‘liq ramzlar mohiyatini yoritish zarur.

O.Ismonovanning fikricha, “Kelin salom” janrining tarixiy ildizlari qadimgi turkiylarning ajdodlar ruhiga topinish, ota-bobolar homiyligiga ishonish hamda uy ostonasini muqaddaslashtirish bilan aloqador mifologik e‘tiqodlarga borib taqaladi. Uy va uning ostonasini timsollashtirish ajdodlar kulti asosida kelib chiqqan bo‘lib, bu an‘ananing ritual ko‘rinishlaridan biri egilib ta‘zim qilish harakati qadimgi sinov-initsiatsiya marosimlari, bobolarni yod etish va ulardan madad so‘rash udumlarining ajralmas qismi bo‘lgan [4;123].

Professor M.Jo‘rayev “Marosim va irimlardagi uch takror formulasi o‘zining magik xarakterini saqlab qolgan. Poetik element sifatida marosim folklorida shakllangan uch takror afsun va olqishlar, shomon tekstlari, irim-e‘tiqodlar bilan bog‘liq aytim hamda alomatlar tarkibiga singib ketib, an‘ana sifatida qo‘llana boshlangan”ligini [2;72] ta‘kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, “uch” raqami baxt, omad va rizq-ro‘z timsoli degan magik ishonch nikoh to‘yi marosimlari bilan bog‘liq udumlar – sovchilarning qiz tomonga uch marta qatnashi; chimildiq udumlarida uch nafar ayolning ishtiroki; chimildiq ichida bitta ko‘rpacha, bitta kashtali yostiq, bitta ko‘rpa, jami uch buyumdan foydalanish; chimildiqda kuyovning kelin sochlarini ipak ro‘mol bilan uch marta silash jarayonida uch bora “muloyim bo‘l” deb takrorlashi; kuyov choponi o‘ng yelkasiga tugun tushirilmay oq ipak uch marta tikilishi; sochqilarning uchga bo‘lib sochilishi; chimildiqda kelin-kuyovdan chiroq uch marta aylantirilishi; to‘y kuni kelin va kuyovning olov atrofidan uch marta aylanishi; bo‘sag‘ada kelinning egilib uch marta ta‘zim qilishi; qiz tomon qudalar dasturxoniga novvot bilan tayyorlangan sharbat uchta kosada keltirilishi, ularning sharbatni uch martadan ho‘plashi; nikoh suvini kelin-kuyov uch marta ho‘plashi kabilarda o‘z ifodasini topgan. Darhaqiqat, o‘zbek nikoh to‘yi marosimi folklorida oilaning mustahkam bo‘lishi, serfarzandlik, rizq-ro‘zli bo‘lishga qaratilgan urf-odat, rasm-rusum, udumlar bir butun kompleksni tashkil etadi.

Shu o‘rinda aytish mumkinki, kelinning salomga egilishi kuyov xonadoniga tinchlik, xotirjamlik olib kelishga qaratilgan. Qo‘shiq ijro jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan “un”, “non”, “yog‘”, “meva” detallari – rizq-ro‘z; “olma”, “behi novdasi” – serfarzandlik; “chimildiq”, “olov”, “isiriq”, “yanga” kelin-kuyovni yomon ruhlardan asrash, ajdodlar ruhini xotirlash, ulardan kuch olish g‘oyalarini belgilaydi.

Bizningcha, ajdodlarimizning qadimiy tasavvurlari, tushunchalari, ishonchlari, e‘tiqodlari va aynan ana shularga o‘q tomir sifatida xizmat qilgan turli oilaviy-maishiy marosimlar, magik-ritual harakatlar, rasm-rusumlar xalq tomonidan to‘qilgan har qanday ijod namunalari uchun genezis vazifasini o‘tagan. Bu kabi xususiyatlar nikoh to‘yi marosimi qo‘shiqlari matnida bugungi kunda ham magik-ritual vazifasini davom ettirib, ma‘lum badiiy funksiyadoshlikka egaligi bilan ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алламбергенов К. Қарақалпақ әдебиятында айтыс. – Нокис: Каракалпакистан, 1989.
2. Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида «сеҳрли» рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991.
3. Имомназарова Ш. Ўзбек фольклорида ўлан жанри (ўзига хос хусусиятлари, генезиси ва бадиияти): Филология фанлари бўйича (PhD) фалсафа доктори илмий даражаси учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2018.
4. Исмонова О. Ўзбек тўй маросим фольклорида «келин салом» жанри (генезиси, ўзига хос хусусиятлари ва поэтикаси): филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент, 1999.
5. Каратаев М. Айтыс XIX – начала XX в. //История казахской литературы. Т.1. – Алматы: Ғылым, 1968.
6. Кароматов Ҳ. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2008.
7. Касимов Н. Ўзбек халқ лапарлари (жанр спецификацияси ва бадиияти): Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент, 1998.
8. Моллаев А.-М.Н. Свадебно-обрядовый фольклор кумыков и его сценическое воплощение: общенациональное и локально-специфическое: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Махачкала, 2012.
9. Муканов С. Айтыстар туралы //Айтыс. Т.1. – Алматы: Жозушы, 1964.
10. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010.
11. Словарь иностранных слов / Под ред. И.В.Лехина, С.М.Локшиной, Ф.Н.Петрова. – Москва: Советская энциклопедия, 1964.
12. Эуезов М. Айтыс олендери // Айтыс. Т.2. – Алмата: Жозушы, 1965.